


ZULFIYAXONIM HAQIQIY SHARQ AYOLI TIMSOLIDIR



Eshmurzayeva Barno

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU o‘zbek tili
va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi
“Izlanish” klubi a’zosi.

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) dotsent M.A.Jo`rayev.

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli shoira Zulfiya Isroilova hayoti va ijodi, uning she’rlari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘z: she’r, ijodkor, Vatan, Sharq ayoli, mukofot, timsol.

Intraduksion: This article talks about the life and work of the poetess Zulfia Israilova, her poems.

Key words: poem, creator, Motherland, Eastern woman, award, symbol.

Аннотация: В данной статье жизнь и творчество известной поэтессы Зулфии Исроиловой есть разговор о его львах.

Ключевые слова: стих, творец, Родина, восточная женщина, награда, символ.

Zulfiya haqiqiy o‘zbek ayoli, oqila qiz, shijoatli yurt farzandi, zabardast va munis shoira, sevimli yor va fidoyi ona... Zulfiya Isroilova haqida gap ketganda shoirani qaysi bir qirrasi haqida so‘z yuritishga taraddudlanib qoladi kishi. Chunki shoira inson sifatida ham, ijodkor sifatida ham serqirradir.

Zulfiya oddiygina temirchi oilasida dunyoga keldi va mana shu oddiylikdan, soddalikdan o‘ziga jilvakor, hashamdar olam yasadi. Otasingin qadoq qo‘llariga, dastgohlardan chiqayotgan chaqinlarga qarab mehnatga nisbatan nafrat emas, muhabbat tuyg`ularini tuydi. Oqila qalb egasi bo‘lgan onasidan esa shoira ko‘nglida, tafakkurida she’riyatga oshnolik nihollari barg yoza boshladidi. Shoiraning o‘zi bu haqda shunday yozadi: “Mo‘jizalarga sabab bo‘luvchi, dunyonи fosh qiluvchi, insoniyatni ajobiyotlar sari yetaklovchi “so‘zga bo‘lgan mehrni oddiygina ayol—onam uyg`otganlar.” “...Nogahon men o‘y-fikrlarim oddiy so‘z va iboralar bilan emas, she’riy tarzda namoyon bo‘layotganini sezsa boshladim...”

Talabalik yillari shoira uchun haqiqiy ijod davri, g‘ayrat va shijoatga to‘la bir davr bo‘ldi. 1932-yilda Zulfiya 17 yoshga to‘lganida , uning “Hayot varaqlari” nomli ilk she’riy to’plami nashrdan chiqdi. U shunchalar qaynoq she’rlar yozdiki, o‘zining haqiqiy Nodira, Uvaysiy, Anbar Otinlar avlodni ekanligini isbotlab berdi.

Zulfiyanı ijodiy barkamollikka yetkazgan, uning she’rlariga bir olam muhabbat olib kirgan inson uning umr yo‘ldoshi xalqimizning zabardast shoiri Hamid Olimjon bo‘ldi. 1935- yilda ikki buyuk iste’dod sohiblari turmush qurishdi. “Men,-- deb yozadi

Zulfiya, --- Hamid Olimjонни ilk daf'a o'sha yilda ko'rganman. Lov etib yonib ... Yashirib o'tirmayman. Hamid Olimjon ilk ko'rishuvdanoq ko'zimdan ko'nglimga o'tdi. Men juda yosh hissiyotim bilan uning keng qalbi, ulkan iqtidorini tuydim".¹ Bir zumda o'chgan baxt olovi shoira hayotini bir umrga yoritib turdi. H. Olimjon vafoti Zulfiyani hayot va ayriliq sinovlarida tobladi, bardoshiga bardosh qo'shdi. Ayriliq ular muhabbatini afsonaga aylantirdi. Takror-takror aytilsa-da, qiymati bir on tushmaydigan, har bir yolg'iz ayolni, yolg'iz onani ovutadigan, madhiya yanglig' shuurimizga singib ketgan bayozlar satrlarga jo bo'ldi:

Hayot kitobini behos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o`rnida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydim.
Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,
Yurak boyligidan qilmabman parvo,
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima – bildim.
Shu-da bir yashash!..

Zulfiyaxonim fidoyi farzand va sevikli yor bo'libgina qolmay, balki jonkuyar, metin irodali Ona ham edi. Joniga jon, yuragiga qalqon bo'la oluvchi farzandlarni toza va pokiza muhabbatlari dunyosida yangi nihollardek asrab-avaylab, haqiqiy inson qilib voyaga yetkazdi. Hulkar va Omon shoira uchun bir umrga tiriklik mujdasi, qalb taskini, umr tirkagi bo'lib keldi:

Mana, bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

O'zbek ayollari hech qachon ojiz bo'limgan, "ayolning qirqa joni bor" maqoli xalqimiz orasida bekorga tarqlimgan. Zulfiya ham ana shunday onalardan biri edi, farzandlari uchun ham ona, ham ota bo'ldi, qirqa jonini qirq bitta tashvishga berdi.

Vatanini, nima uchun yashayotganini, xalqi qiyin bir vaziyatda ekanida unga qo‘lidan kelgancha yordam berishi kerakligini ham hech qachon yodidan chiqarmadi.

Zulfiya ayni urush yillarida o‘zining o‘tli she’rlarini yozib, jangchilar qalbiga Vatanga muhabbat, fidoyilik ruhini soldi. Ularga madad bo‘la oldi. U davrda butun xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, bir mayizni qirq bo‘lib yeydigan zamonlar edi. Zulfiya o‘z ulushini qalb o‘rtovchi she’rlari, mardonavorlikka chorlovchi chaqiriqlari orqali o‘z xalqiga yetkazib berdi va bu narsa mard jangchilarimiz uchun o‘sha vaqtida bo‘g‘iq urush havosidan toza yurt nasimlarini his qilishlari uchun suv va havo kabi zarur edi.

Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham Vatanga, ham menga bu til,
Qoya kabi yonimdan chiqib,
Suyan, -- deydi – kiftimga dadil...²

Zulfiya nafaqat sevikli yor, balki o‘z yurti uchun ham ardoqli farzand edi. Uning diltortar she’rlari butun jahon bo‘ylab yangradi, kichikkina Vatani bo‘lmish O‘zbekistonni katta davralarda tilga olishlariga, ta’rifini keltirishlariga erishdi. Har bir yurt farzandi bajarishi lozim bo`lgan burchni bajarmoq baxti Zulfiyaga nasib etdi. Ollohning suygan bandasi ekanlar... 50-yillarning ikkinchi yarmida Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik ostida o‘tgan harakatida faol qatnashadi va shu davrda yozilgan “Mushoira” she’ri shoiraga katta shuhrat keltirdi. Zulfiya Javoharla’l Neru nomidagi va “Nilufar” nomli xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Zulfiya haqiqiy o‘zbek ayoli, farzandi edi. Bu haqda taniqli avar shoiri Rasul Hamzatov shunday deydi: “Zulfiya haqida bilimga ega bo‘lganimda, Moskvadagi yozuvchilar qurultoyida u bilan shaxsan tanishganimda, uning she’rlarini o‘qib chiqqanimda, uning ajoyib shoira va ajoyib inson ekanligini, ona yurti O‘zbekistonning munosib vakili bo‘lgan ajoyib Sharq ayoli ekanligini angladim. Yashirmayman, ba’zan ijodkor ayollarga yengilliklar beriladi. Ammo Zulfiya bundaylardan emas edi, u taqdiri o‘z xalqining taqdiri bilan bog‘langan shoira edi...” Rus adibi Nikolay Tixonov ham uning haqiqiy Sharq ayoli ekanligiga urg’u beradi: “...Uning o‘zi esa yangi tong kabi do’stlarining yo‘lini yoritib turuvchi Sharq ayolidir...”³ Darhaqiqat, Zulfiyani butun dunyo adiblari e’tirof etadi, olqishlaydi. Ularning barchasining so‘zları negizida Zulfiyani haqiqiy O‘zbek ayoli, Sharq ayoli deya e’tirof etganliklari, anglab yetganliklari to‘g‘risidagi fikrlar yotadi. Zulfiya o‘z fazilatlari bilan dunyo e’tirofida O‘zbek ayoli degan tushuncha ma`nosini yuksaklarga ko‘tardi.

Biz-chi? Biz o‘zbek farzandi degan nomga munosib ish qilmoqdamizmi? Zulfiya davomchisi bo‘la olamizmi? Zulfiyaxonim singari Vatan tuyg‘usini qon-qoniga

singdirgan, samimiyatni o‘ziga kasb qilib olgan farzandgina bu nomga Musharraf bo‘la oladi. Zulfiyaxonim she’rlari hamisha mudrab yotgan qalblarni uyg‘otuvchi ohangdir...

E’zozlar, ardog‘lar uchun tashakkur,
Asli siz oftobim, men ziyo siman.
Tonglaringiz kulsin dorilamon, hur,
Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umirova A. Baxtim shul – O‘zbekning Zulfiyasiman. Xalq so‘zi. 2020.
2. Isroilova Z. Kuylarim sizga. Toshkent. 1965.
3. Karimov N. Zulfiya opa haqida. O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati. 2013.